

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**PARIJ XALQARO MODA AKADEMIYASI (FRANSIYA)
TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT
INSTITUTI QO‘SHMA FAKULTETI**

“KIRITDI”

**Toshkent to‘qimachilik va yengil
sanoat instituti Ilmiy ishlar va
innovatsiyalar bo‘yicha prorektor**



N.B. Mirzayev

06 2025-y

“TASDIQLAYMAN”

**O‘zbekiston Respublikasi
Oliy ta’lim, fan va
innovatsiyalar vazirligi**



18 2025-y

**KASBIY (IJODIY) IMTIHONLAR DASTURI
VA BAHOLASH MEZONI**

**60210400 – “Dizayn (tikuv buyumlarini modellashtirish)”
ta’lim yo’nalishi uchun**

Toshkent-2025

Dastur Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti (TTYSI) o'quv-uslubiy kengashida ko'rib chiqilgan va ma'qullangan (2025 yil 23 may, 10-sonli majlis bayoni).

Tuzuvchilar:

X.H.Kamilova

TTYSI o'quv ishlari bo'yicha prorektori,
"Moda va dizayn" kafedrası professori, t.f.d.

U.A.Vaxidova

TTYSI "Moda va dizayn" kafedrası mudiri

U.T.Muminova

TTYSI "Moda va dizayn" kafedrası professori, t.f.d.

Taqrizchi:

Marie-Claire Moorogan

Parij xalqaro moda akademiyasi (AICP) professori

KIRISH

O'zbekistonda to'qimachilik va moda industriyasini rivojlanishi, kichik va o'rta biznesining davlat tomonidan qo'llab quvvatlanishi, yuqori sifatli eksklyuziv va dizayn mahsulotlariga talabni ortishi, dizaynerlar faoliyatiga cheksiz imkoniyatlar beruvchi matolar va uskunalar yangi avlodining paydo bo'lishi – bularning barchasi yangi namunadagi mutaxassislar tayyorlashni taqozo etmoqda.

Respublikamizda badiiy ta'lim islohotlarini yanada chuqurlashtirish, ilg'or xorijiy tajribalarni qo'llash, sohalar bo'yicha malakali kadrlarni tayyorlash borasida, ularning kasbiy xususiyatlarini rivojlantiruvchi, shuningdek, iqtidorli, ijodkor mutaxassis ko'nikmalarini o'zida namoyon etuvchi va sohaga qiziqish uyg'ota oluvchi, o'z yo'nalishi va uslubini topishda, ayniqsa kiyim konstruksiyasini loyihalash va modellashni, loyihalanayotgan kiyimlarning yuqori sifatini ta'minlash, ularning assortimentini yangilash va kengaytirish, ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligini oshirish, aholining ehtiyojlarini shinam, zamonaviy, qulay kiyimlar bilan qondirish bo'yicha masalalarni ijodiy va texnik asoslangan holda yechishni taffakur va mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini aniqlashda imkon beradi hamda malakali dizaynerlar tayyorlash uchun **“Kompozitsiya” va “Tikuv buyumlarini modellashtirish”** fanlari sifatida zaruriyati juda katta.

60210400 – “Dizayn (tikuv buyumlarini modellashtirish)” ta'lim yo'nalishi bo'yicha Ijodiy imtihon dasturi Parij Xalqaro Moda Akademiyasi (AICP) talablari asosida tuzilgan bo'lib, abituriyentlarning amaliy ko'nikma va malakalarini aniqlash maqsadida o'tkaziladi. Bajarilgan vazifalar tasdiqlangan mezon asosida baholanadi.

Jami ball	Jumladan:		
	“Kompozitsiya” fanidan	“Tikuv buyumlarini modellashtirish” fanidan	“Portfolio” ni rasmiylashtirish
100	30	40	30

1. FANNING MAQSAD VA VAZIFALARI

Kompozitsiya – barcha san'at turlarini asosiy tushunchasi bo'lgani uchun talabalar ushbu tushunchaga oid qoidalarni bilishi kerak.

Kompozitsiya kursi talabalarda obrazli o'ylashni, fantaziyani, didning takomillashuvini hamda ijodiy qobiliyatlarni rivojlantiradi, dizaynerlik faoliyati mobaynida korxonalarda liboslarni badiiy loyihalash, milliy moda va uslub yaratishda kasbiy bilim va ko'nikmalarni hosil qiladi.

Ijodiy imtihonning asosiy maqsadi – institutga kiruvchining kasbiy layoqatini, ijodiy qobiliyatini va badiiy tayyorgarlik darajasini, obrazli-konstruktiv tafakkurini hamda yangi modellar eskizlarini ishlab chiqishi ko'nikmalarini aniqlash. Abituriyentning quyidagi bilimlarini va qobiliyatini aniqlashdan iborat:

- shakllarni emotsional va hissiy qabul qilish, ifodali va mantiqiy fikrlash qobiliyati;
- fazoviy va konstruktiv fikrlash mahorati;
- original obraz, g'oyani topa olish, fantaziya, tasavvur qilish qobiliyati;
- shaxsiy mualliflikdagi eskiz va badiiy grafika;
- emotsional ranglar holatini, syujet va tasavvur, ranglar gammasini idrok qilishi va ifodalashi;
- berilgan mavzuning kompozitsiyaviy va rang yechimlarining o'zaro uyg'unligi.

«Tikuv buyumlarini modellash» fani talabalarni material xossalari, moda yo'nalishi, kostyum kompozitsiyasi asoslariga mos ravishda turli shakl, bichim, siluetdagi kiyim modellarini loyixalash va modellashning perspektiv va zamonaviy usullarini egallash uchun nazariy bilimlar va amaliy ko'nikmalarni shakllantirish vazifalarini bajaradi.

Kiyim konstruksiyalash- loyiha ishlarining muhim qismi bo'lib, tikuv buyumlari konstruksiyalarini ratsional loyihalash masalalari bilan shug'ullanadigan amaliy fandır.

Portfolio – bu ijodkorning xujjatlar, ish namunalari, fotosuratlar, taqdim etilayotgan imkoniyatlarni tasavvur eta olish imkoniyatini beruvchi materiallar, mutaxassis xizmatlari to'plami. Bu o'z ichiga xujjatlar to'plamini, kasbiy mahoratini, ta'lim muammolarini hal etish yo'llarini va h. qamrab oladi. Portfolio abituriyent haqida, uning tayyorgarligi, kasbiy ko'nikmalari va tajribasi haqida aniq va to'liq ma'lumot olish imkoniyatini beradi. Ta'lim sifatiga bo'lgan talab kundan kun oshib brogan vaqtda portfolio o'quvchilarning ish faoliyati unumdorligini monitoringini olib borish va yana ham muhim tomoni o'z-o'zini kuzatish va o'z ustida ishlashi uchun muhim hisoblanadi.

2. 60210400 – “Dizayn (tikuv buyumlarini modellash)” ta'lim yo'nalishiga kiruvchi abituriyentlar uchun fanlardan Ijodiy imtihon dasturi.

2.1. “Kompozitsiya” fani bo'yicha.

Kompozitsiya va texnik modellash A3 formatdagi qog'ozda 180 daqiqa mobaynida bajariladi.

Imtihonda berilgan texnik rasm bo'yicha abituriyentlar tomonidan turli texnikada (akvarel, grafika, kollaj, applikatsiya va b.) model eskizi kompozitsiyasi bajariladi.

Kompozitsiya va A3 formatdagi qog'ozda bajariladi. Har bir abituriyentning kompozitsiya ishlari bitgandan so'ng maxsus ishlab chiqilgan va tasdiqlangan, baholash mezonida maksimal 30-balli shkala bo'yicha baholanadi.

1. Kompozitsiya bo'yicha imtihon maxsus jihozlangan auditoriyada o'tkaziladi.

2. Auditoriyaga kirishdan avval abituriyent raqam olib mazkur raqamdagi stolga borib joylashadi.

3. Abituriyent amaliy ish bajarish uchun qabul komissiyasi tomonidan muxrlangan qog'oz (A3) beriladi. Har bir abituriyentga imtihon varaqasi rasmiylashtiriladi.

4. Imtihonda qatnashishga imtihon varaqasi va pasport asosida ruxsat beriladi. Imtihonga begona shaxslarning kirishiga yo'l qo'yilmaydi.

5. Vazifalarni berish, ishni bajarish oldidan imtihon oluvchining bajariladigan ish tartibini tushuntirishi, titul varaqasini to'ldirish kabilar ushbu ishni bajarish uchun ajratilgan umumiy vaqt reglamentiga kiradi.

6. Har bir auditoriyada abituriyentlar bilek tanlash asosida bir mavzu tanlaydilar.

7. Imtihonda har bir abituriyent quyidagi zarur jihozlarga ega bo'lishi kerak:

- A3 formatdagi qog'oz;
- har xil yumshoqlikda grafit va rangli, uchi o'tkirlangan qalamlarga;
- avtomat tarzda ishlaydigan 0,5 va 0,7 mm qalinlikdagi grifellarga ega qalamlar (dozatorlar);
- yumshoq o'chirg'ichlar;
- qalam ochish uchun ochqich yoki skalpel;
- kompozitsiyani rangda bajarish uchun akvarel, guash bo'yoqlari, moy qalam, geleviy ruchkalar, palitra va suv uchun idish.

Bundan tashqari kompozitsiyani bajarayotganda abituriyent o'zining turli texnik qobiliyatlariga bog'liq boshqa instrumentlarga ham ega bo'lishi mumkin, lekin quyidagilarga ruxsat etilmaydi:

- moy bo'yoq asosidagi bo'yoqlar va uzoq vaqtni (15 minutdan ortiq) talab etadigan bo'yoqlar;
- maxsus qotish jarayonini talab qiladigan pastel va chizilgan kompozitsiya yengil o'chib ketadigan badiiy materiallardan foydalanish.

8. Zarur bo'lgan hollarda abituriyentning arizasiga muvofiq buzilgan qog'oz almashtirib berilishi mumkin, bunda dastlabki qog'oz yo'q qilinadi. Yangi berilgan qog'oz ham shtampli bo'lishi lozim. Abituriyent qog'ozni almashtirganda vazifa uchun ajratilgan vaqtga qo'shib bermasligi to'g'risida oldindan ogohlantiriladi.

9. Abituriyentlarga bajargan ishiga imzo, biror bir belgi qo'yish va suratga olish qat'ian taqiqlanadi.

10. Bajarilgan ish qabul komissiyasiga topshiriladi va ular shifrlangandan so'ng fan komissiyasi tomonidan tasdiqlangan baholash me'zonlariga muvofiq ball tizimida baholanadi. Qo'yilgan ballar so'z bilan ham yoziladi va baholar qog'ozning ish bajarilgan tomonida bo'lishi lozim.

**“Kompozitsiya” fanidan imtihon topshiruvchi abituriyentlar
quyidagi shartlarni bajarish lozim:**

- kompozitsiya mavzusi original jihatdan topilganligi, ishning kompozitsion g'oyaviy mazmundorligi;

- badiiy ifodaning mutaxassislikka mosligi, turli shakllarning kompozitsion jihatdan to'g'ri ishlatilganligi;
- berilgan topshiriqning mazmun, ma'nosi to'liq ochilganligi, bajarilgan ishni ashyoda noziklik bilan ishlanish mahorati, ishning tugatilganligi.

Ijodiy imtihonda “Kompozitsiya” fani bo'yicha abituriyent tomonidan bajarilgan amaliy ish quyidagi mezon asosida baholanadi:

№	Mezonlar	Maksimal ball
1	Model eskizi kompozitsiyasini qog'ozga kompozision to'g'ri joylashtirish.	5
2	Kompozitsiyaning mavzuga mos tuzilganligi, g'oyaviy yechimi va kreativligi.	10
3	Libosni to'g'ri proportsiyalarda va konstruktiv-dekorativ yechimi aniq ifodalanganligi	10
4	Libos kompozitsiyaning to'liq tugallanganligi	5
	Jami	30

Ushbu talablarning barchasini bajargan abituriyentlar eng yuqori 30 ballga ega bo'ladi.

Qo'shimcha aniqliklar gradatsiyasi uchun baholash shkalasini kengaytirish maqsadida 0,5 ballga karrali baholash qo'llaniladi.

2.2. «Tikuv buyumlarini modellashtirish» fani bo'yicha.

Imtihonda abituriyentlar tomonidan model eskizi bo'yicha texnik modellashtirish bajariladi.

Texnik modellashtirish – bu bazali siluet asosidan dan foydalanib, kiyim modelining grafik tasviriga (eskiziga) muvofiq kiyim qismlarining chizmalarini ishlab chiqish jarayoni.

Texnik modellashtirish quyidagi asosiy bosqichlardan iborat:

1. Model eskizini o'rganish va texnik tavsifini tuzish.
2. Model eskizi bo'yicha bazali siluet asos konstruksiya chizmasiga texnik modellashtirish chiziqlarini chizib ko'rsatish (berilgan bazali siluet asos konstruksiya shablonida).

Texnik modellashtirish topshiriqlari A3 formatdagi (297 x 420 cm) oq qogozlarda bajariladi. Har bir abituriyentning texnik modellashtirish ishlari bitgandan so'ng maxsus ishlab chiqilgan va tasdiqlangan, baholash mezonini asosida maksimal 40-balli shkala bo'yicha baholanadi.

Imtihonda har bir abituriyent quyidagi zarur jihozlarga ega bo'lishi kerak:

- har xil yumshoqlikda grafit va rangli, uchi o'tkirlangan qalamlarga;
- avtomat tarzda ishlaydigan 0,5 va 0,7 mm qalinlikdagi grifellarga ega qalamlar (dozatorlar);
- yumshoq o'chirg'ichlar;

- qalam ochish uchun ochqich yoki scalpel;
- rangli qog'oz;
- qaychi.

Tashqi ko'rinishning tavsifini tuzganda model asosiy detallarining konstruksiyasiga ahamiyat qaratiladi (old va ort bo'laklar, eng, yoqasi, adip, astar, qotirma va issiq saqlovchi qavatlar, bezaklar va hokazo):

- kiyimning nomi, vazifasi, materiali va h.k. Misol uchun: O'rta yoshli ayollarga mo'ljallangan komplekti. Komplekt jaket va yubkadan iborat. Materiali – yarim junli, lavsanli, mayda katakli;

- shakli (silueti, bichimi, taqilmasi). Masalan: yopishib turadigan siluetli uzun jaket, bir bortli ikkita tugma va izmaga taqilmali, bort qaytarmasi (latskani) keng, ovalsimon;

- old bo'lak konstruksiyasining tavsifi. Masalan: Old bo'lak qirqma yon bo'lakli, old vitachkalar (har tomonda bittadan) bo'lib, vitachkalar yon cho'ntaklar qirqimiga o'tadi. Qopqoqli va ikkita mag'izli yon cho'ntaklar gorizontali (yoki qiya) joylashgan qirqimlarda ishlangan. Chap old bo'lakda listochkali yuqori cho'ntaklar ishlangan;

- ort bo'lak konstruksiyasining tavsifi. Masalan: ort bo'lak shlitsa bilan tugallangan o'rta chokli, ikki bo'lakdan iborat;

- yenglar konstruksiyasining tavsifi. Masalan: yenglar o'tqazma ikki chokli (old va tirsak chokli). Tirsak choklari yeng uchidagi ochiq ikki tugmali shlitsa bilan tugallangan;

- yoqa konstruksiyasining tavsifi. Masalan: yoqa pidjakka mansub tipdagi, o'tmas burchakli;

- astar tavsifi. Masalan: jaket astari – etakkacha. Astarda mag'izi asosiy gazlamadan bo'lgan ikkita ichki cho'ntak ishlangan;

- bort, latskan va etak bezaklarining turi. Masalan: bort, latskan, yoqa, cho'ntaklar qopqog'i, shlitsa va etagi bezak chok bilan tikilgan;

- belli buyumlarni esa (shim, yubka) silueti, bo'ylama va ko'ndalang choklar va vitachkalar, taqilmalar turi, belbog' va cho'ntaklar xili, yubkada taxlamalar, shimda manjetlar va h.k. mavjudligi tavsiflanadi.

Har bir abituriyentning «Tikuv buyumlarini modellashtirish» fanidan vazifalarni bajarish uchun qog'ozga qabul komissiyasining maxsus shtampi uriladi. Zarur bo'lgan hollarda abituriyentning arizasiga muvofiq buzilgan qog'oz almashtirib berilishi mumkin, bunda dastlabki qog'oz yo'q qilinadi. Yangi berilgan qog'oz ham shtampli bo'lishi lozim. Abituriyent qog'ozni almashtirganda vazifa uchun ajratilgan vaqtga qo'shib bermasligi to'g'risida oldindan ogohlantiriladi.

Baholangan ishlar apellyatsiya o'tkazish uchun qabul komissiyasida qoladi, (abituriyentlarga qaytarib berilmaydi).

**Ijodiy imtihonda «Tikuv buyumlarini modellashtirish» fani bo'yicha
abituriyent tomonidan bajarilgan amaliy ish quyidagi mezon asosida
baholanadi:**

№	Mezonlar	Maksimal ball
1	Texnik tavsifni to'g'ri tuzilganligi	10
2	Texnik modellashtirish to'g'ri bajarilganligi	20
3	Kiyim detallarining konstruktiv tuzilishlari va proporsiyalari to'g'ri ko'rsatilganligi	10
	Jami	40

Ushbu talablarning barchasini bajargan abituriyentlar eng yuqori 40 ballga ega bo'ladi.

Qo'shimcha aniqliklar gradatsiyasi uchun baholash shkalasini kengaytirish maqsadida 0,5 ballga karrali baholash qo'llaniladi.

2.3. «Portfolio» bo'yicha.

Portfolio – abituriyentning kasbiy va ijodiy faoliyatida egallagan turli masalalarni hal eta olish malakalarini ko'rsatuvchi shuningdek o'quvchining profesionallik darajasini baholashga qaratilgan materiallar to'plamidir.

Portfolio – turli faoliyat yo'nalishlari bo'yicha biror vaqt oralig'ida erishilgan kasbiy yutuqlar aks ettirilgan va baho beriladigan individual papkadir. Portfolio - shu portfolio egasining o'quv, ijodiy, ijtimoiy, muloqot kabi turli faoliyat yo'nalishlari bo'yicha erishgan yutuqlari bilan tanishish imkoniyatini beradi. Bundan tashqari portfolio abituriyentning individual yutuqlari, turli loyihalarda qatnashganliklari, fan olimpiadalari, tanlovlar, musobaqalarda g'olib bo'lganliklari qayd etib boriladi.

Abituriyent Portfoliosini albom yoki papka ko'rinishida Ijodiy sinovlar o'tkazuvchi komissiya a'zolariga tipshiradi.

«Portfolio» quyidagi mezon asosida baholanadi:

№	Mezonlar	Maksimal ball
1	Portfolioning mavzuga mos tuzilganligi g'oyaviy yechimi va kreativligi.	10
2	Portfolioni tarkibiy qismlari bo'yicha qoidalrga muvofiq holda bajarilishi	5
3	Portfolioning bajarilishi sifatiga	10
4	Portfolioning to'liq tugallanganligi	5
	Jami	30

Ushbu talablarning barchasini bajargan abituriyentlar eng yuqori 30 ballga ega bo'ladi.

Qo'shimcha aniqliklar gradatsiyasi uchun baholash shkalasini kengaytirish maqsadida 0,5 ballga karrali baholash qo'llaniladi.

Ijodiy imtihonlar bo'yicha Ijodiy sinovlar o'tkazuvchi komissiya a'zolari shu yo'nalishdagi yuqori malakali mutaxassislik kafedrası professor-o'qituvchilari tarkibidan jalb etiladi.

2.4. Parij Xalqaro Moda Akademiyasi (AICP) va TTYSI Qo'shma fakulteti Tayyorlov kursini muvaffaqiyatli tamomlagan abituriyentlar Portfolio va suxbat asosida o'qishga qabul qilinadi.

3. Apellyatsiya tartibi

Abituriyentlar tomonidan Ijodiy imtihon natijalari bo'yicha institut qabul komissiyasining apellyatsiyalar bilan ishlash hay'atiga natijalar e'lon qilingan kundan boshlab 24 soat davomida murojaat qilishlari mumkin. Apellyatsiya tartibiga ko'ra arizachining faqat o'z ishini baholanishi doirasidagi e'tirozi qabul qilinadi va ko'rib chiqiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. The French Art School. Figure Drawing & Portrait Drawing Book. – Paris: Atelier du Dessin Classique, 2023.
2. Holmes, Catherine V. How to Draw Cool Stuff: A Drawing Guide for Teachers and Students. – 2nd ed. – USA: Library Tales Publishing, 2020.
3. Bargue, Charles; Gérôme, Jean-Léon. Cours de dessin classique (méthode Bargue). Plates & analyses. – Paris: École des Beaux-Arts Numérique, 2021.
4. X.X. Kamilova, N.A.Isahojayeva, K.R.Fuzailova. Kostyum kreativ grafikasi. – Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2017.
5. N.A.Isahojayeva, A.F.Karimov, R.T.Axmedov. Chizmatasvir va rangtasvir. – TTYSI bosmaxonasi, 2018.
6. B.Boymetov. Qalamtasvir. – Toshkent: “Ilm Ziyo”, 2013.
7. Ермолаева Л.П. Основы дизайнерского искусства: декоративная живопись, графика, рисунок фигуры человека. Москва, 2001.
8. X.X.Kamilova, U.A.Voxidova. Loyihalash. – Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2017.
9. Hywel Davies. Fashion Designers' Sketchbooks. – United Kingdom, London, 2010.
10. Bina Abling. Fashion Sketchbook. Firechild Book, New York, 2012 y
11. S.Abdurasilov, N.Tolipov. N.Oripova. Rangtasvir. – Toshkent: “O'zbekiston” nashriyoti, 2006.
12. B.B.Boymetov, M.S. Tolipov. Plastik anatomiya. – Toshkent: Ilm Ziyo, 2005.
13. B.B. Boymetov. Chizmatasvir . – Toshkent: Ilm Ziyo, 2005. -190 b.
14. S.Bulatov. Rangshunoslik. – Toshkent: O'zbekiston, 2009.-160 b.
15. N.Sodiqova, - O'zbek milliy kiyimlari XIX- XX asrlar- T.: G'.G'ulom, 2006.
16. Зарида Заман. Справочник дизайнера по формам и стилям одежды. Москва, 2008.
17. Л.А.Сафина, Л.М.Тухтабулина, В.В.Хаматова – Проектирование костюма – Ростов-на-Дону: Феникс, 2007.
18. Гусейнов Г.М. Композиция костюма. Москва, 2003
19. Н.С. Макаеева. Основы художественного проектирования костюма. Практикум.-М.: Академия, 2008.
20. Ф.М.Пармон. Композиция костюма. Одежда, обувь, аксессуары. Учебник. -М. “Триада плюс”, 2002.
21. Aristides, Juliette. Beginning Drawing Atelier: An Instructional Sketchbook. Paris: Atelier du Dessin Classique, 2023.

Axborot manbalari:

22. <http://modanews.ru/books>

23. <https://www.elle.ru › moda › fashion-blog › 5-sekretov-feshn-illy us tratsi>

24. www.pinterest.ru › pin

25. www.wmj.ru/moda